

## INDIVIDUAL TA'LIM MUAMMOSINI HAL QILISHDA TURLI XIL YONDASHUVLAR

*Xaydarova Malika Djamshitovna,  
Buxoro davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi  
Orcid: <https://orcid.org/0000-0003-0033-6367>  
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.058>*

*Аннотация. Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish texnologiyalarini takomillashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch va fanga oid kompetensiyalarini tizimli shakllantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida[5] "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" ta'lim tizimining ustivor yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yilgan. Bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan pedagogik mexanizm sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi*

*Maqolada ijtimoiy yo'nalishdagi bo'lajak boshlang'ich sinf oqituvchilariga o'quvchilar bilan individual ishlab qo'l mehnatiga o'rgatishning usullari haqida ma'lumot berilgan.*

*Kalit so'zlar: individual, qo'l mehnati, yondashuv, maktab, zamonaviy ta'lim*

## РАЗНЫЕ ПОДХОДЫ К РЕШЕНИЮ ПРОБЛЕМЫ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Хайдарова Малика Джамшитовна,  
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института*

*Аннотация. В последние годы в нашей республике создаются совершенствование технологий применения индивидуального подхода к образовательному процессу, нормативных основ системного формирования базовых и предметных компетенций учащихся младших классов. В концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года[5] в качестве приоритетных направлений определено «совершенствование методики преподавания, поэтапное внедрение принципов индивидуализации в образовательный процесс». системы образования. Это, в свою очередь, объясняет необходимость рассматривать данный процесс как педагогический механизм, имеющий исследовательско-аналитическую направленность.*

*В статье представлена информация о методах обучения ручному труду будущих учителей начальной школы социального направления путем индивидуальной работы с учащимися.*

*Ключевые слова: индивидуальный, ручной труд, подход, школа, современное образование*

## DIFFERENT APPROACHES TO SOLVING THE PROBLEM OF INDIVIDUAL EDUCATION

*Xaydarova Malika Djamshitovna,  
Teacher at Bukhara State Pedagogical Institut*

*Abstract. In recent years, in our republic, improvement of technologies for applying individual approach to the educational process, normative foundations of systematic formation of basic and subject-related competences of elementary school students are being created. In the concept of the development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030[5], «improving the teaching methodology, step-by-step implementation of the principles of individualization in the educational process» is defined as the priority directions of the education system. folded This, in turn, explains the need to consider this process as a pedagogical mechanism with a research and analytical direction.*

*The article provides information on the methods of teaching manual labor to future elementary school teachers in the social direction by working individually with students.*

*Keywords. individual, manual labor, approach, school, modern education*

**KIRISH.** Jahonda boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish texnologiyalarini takomillashtirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish asosida bilimlar va axborotlarni idrok etishlarini optimallashtirish, ta'lim oluvchi shaxsida dunyoni individual o'zlashtirish, ularning individual-estetik ehtiyojlarini qondirishning variativ modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida o'tkazilgan Butunjahon forumida qabul qilingan 2030 yilga qadar rivojlanish deklarasiyasida "kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning individual o'zlashtirish imkoniyatlarini nazarda tutuvchi ta'lim muhitini yaratish, individuallashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish"[149] qayd etilgan bo'lib, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Vetnam, Xitoyda individual yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishga doir amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy ta'lim har bir bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shishi va uning ijodiy o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratishi kerak. O'quv materialini o'zlashtirish muvaffaqiyati, uni o'zlashtirish sur'ati, bilimning mazmunlilikining mustahkamligi, bolaning rivojlanish darajasi nafaqat o'qituvchining faoliyatiga, balki ko'pgina omillar, ya'ni o'quvchilarning bilish jarayonlari: idrok, xotira, aqliy faoliyat, qobiliyatlari va layoqatlariga hamda jismoniy rivojlanish xususiyatlariga ham bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida doimiy ravishda bunday qarama-qarshiliklarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, ijobiy tomonlarini kuchaytirish, ya'ni ta'limning sinf shaklida har bir bolaning haqiqiy rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish turadi. Ushbu amaliy masalani hal qilishda o'quvchilar bilan hamkorlikka kirisha olishlari, tabaqalashtirilgan va individual yondashuvni izchil qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

Zamonaviy maktabning asosiy vazifasi – har bir o'quvchining qobiliyatini ochib berish, yuqori texnologiyali, raqobatbardosh dunyoda hayotga tayyor shaxsni tarbiyalashdir. Binobarin, o'qitishning asosiy maqsadi shaxsning aqliy, axloqiy, hissiy va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, o'quvchilarning mustahkam bilim olishiga, bilim asoslarini egallashiga erishish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat ekanligi bejiz emas.

Ko'p yillar davomida o'qituvchilar va psixologlar tomonidan maktab sharoitida o'quvchilarning individual xususiyatlarini, shuningdek, jamiyatning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda maksimal darajada rivojlanishiga hissa qo'shadigan ta'lim tizimini yaratish imkoniyatlarini qidirmoqdalar.

Individuallashtirish deganda o'quv jarayonida individual yondashuvga asoslangan pedagogik jarayonni amaliy tashkil etish tushuniladi.

So'nggi yillarda MDHda bir qator olimlar I.E. Unt[123], A.A.Kirsanov[59], E.M.Sagilyan[107], Ye.S.Rabunskiy[100] va boshqa tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Ushbu muammoning rivojlanishiga metodologlar D.Kaneman[56], M.A.Kalugin[54], N.V.Novotorseva[54], A.A.Kirsanov[60] va boshqalarning asarlari katta hissa qo'shdi. Pedagog olimlarning ishlarida bu muammoning mazmuni va tuzilishi belgilab berilgan, uni amalga oshirish yo'llari va vositalari taklif etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, individuallashtirish g'oyasi pedagogika fanining "ixtirosi" emas. U 19-asr oxirida pedagogika tomonidan bevosita psixologiyadan va qisman sotsiologiyadan olingan.

1920-yillarda, Birinchi jahon urushi natijasida yuzaga kelgan ruhiy tushkunlik fonida, Yevropada kompensatsiya (ya'ni, insonning biologik zaifligini bartaraf etish) g'oyasiga asoslangan individual psixologiya keng tarqaldi. Psixologiyaning bu yo'nalishi G'arb pedagogikasi, sotsiologiyasi va psixologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

O'quv jarayonida bilim har bir o'quvchi tomonidan individual ravishda o'zlashtirilishini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ma'lum bir guruh, sinf bolalarida mos kelib, bir xil tashkil etiladi. Shundan kelib chiqqan holda o'quv jarayonida bolalarning individual rivojlanishida umumiylikni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bolalarning umumiy rivojlanish darajasini tavsiflashda faoliyat va xatti-harakatlar motivlarining o'xshashligi nazarda tutiladi. Odatda, bir xil yoshdagi bolalarda bu umumiy darajaga ega. Shu sababli, o'qitishda ma'lum bir guruh, ma'lum yoshdagi bolalarning umumiy psixologik xususiyatlarini bilish, har bir o'quvchi tomonidan o'quv materialini tushunish imkoniyatini beradi.

Maktab o'quvchilarining individual xususiyatlarini o'rganishning asosiy usullari: o'rtoqlarga bo'lgan munosabati, uning guruhdagi mavqei bilan o'z-o'zini baholashini tizimli kuzatish, oldindan belgilangan mavzu bo'yicha individual va guruh suhbatlari, qo'shimcha o'quv vazifalari va o'quvchilarning fikrlash usullarini tahlil qilish, bolaning jamoadagi o'rni bilan bog'liq maxsus vazifalardir. Asosiysi, bolani har tomonlama o'rganish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda uning ijobiy fazilatlariga qarash, bu individual yondashuvni tushunishdir.

Pedagogika bo'yicha o'quv qo'llanmalarida individual yondashuv ta'limning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi. E.S.Rabunskiy[100] umumiy pedagogik va didaktik tamoyillardan biri sifatida individual yondashuvning ahamiyatini batafsil ko'rib chiqadi va uning mantiqiy asoslarini keltiradi.

Birinchiidan, individual yondashuv prinsipi, boshqa didaktik tamoyillardan farqli o'laroq, har bir o'quvchining shaxsiyatida nafaqat ijtimoiy, balki individual o'ziga xoslikni ham tizimli ravishda hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Ikkinchiidan, har bir o'quvchi istisnosiz individual yondashuvga muhtoj. Ko'rib chiqilayotgan tamoyilning bu belgisi o'quvchi shaxsiga insonparvarlik munosabati to'g'risidagi qoidadan kelib chiqadi.

Uchinchiidan, individual yondashuv faol, shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi tamoyil bo'lib, o'quvchi individualligini ijodiy rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'limni individuallashtirish – o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishning har qanday shakllari va usullari qo'llash asosida o'quv jarayonini tashkil etish hisoblanadi. Individual ta'limning pedagogik-psixologik jihatlari quyidagilardan iborat:

- 1) minimal o'zgartirish va guruhli o'rganishdan to'liq mustaqil o'rganishgacha;
- 2) shakllar, maqsadlar, o'qitish usullari va o'quv materialining xilma-xilligi;
- 3) barcha fanlarda, ayrim fanlarda, o'quv materialining alohida qismlarida individual ta'limdan foydalanish.

Shu munosabat bilan o'qitishga individual yondashish tamoyili o'qituvchidan quyidagilarga rioya etishni talab etadi:

1) o'quvchilarning individual xususiyatlari: temperamenti, xarakteri, qarashlari, didi, odatlarini doimiy ravishda o'rganib chiqish va yaxshi bilish;

2) tafakkur tarzi, motivlari, qiziqishlari, munosabati, shaxs yo'nalishi, hayotga, mehnatga munosabat, qadriyat yo'nalishlari, hayot rejalari kabi muhim shaxsiy fazilatlar shakllanishining real darajasini bilish va diagnostika qila olish;

3) har bir o'quvchini doimiy ravishda shaxsning izchil rivojlanishini ta'minlaydigan va qiyinligi bo'yicha tobora qiyin bo'lgan ta'lim faoliyatiga jalb qilish;

4) maqsadga erishishga xalaqit berishi mumkin bo'lgan sabablarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, agar bu sabablarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning iloji bo'lmasa, mavjud yangi sharoitlarga qarab mashg'ulot taktikasini zudlik bilan o'zgartirish;

5) imkon qadar shaxsning o'z faoliyatiga tayanishiga erishish;

6) o'z-o'zini tarbiyalashning maqsadlari, usullari, shakllarini tanlashda yordam beradigan shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash bilan uyg'unlashgan ta'limni tashkil eta olish;

7) o'quvchilarning muvaffaqiyatga olib keladigan mustaqilligi, tashabbuskorligi, havaskorlik faoliyatini rivojlantirish.

O'qituvchi tayanishi kerak bo'lgan individual xususiyatlar orasida idrok, fikrlash, xotira, nutq, xarakter, temperament boshqalarga qaraganda tez-tez ajralib turadi. Ommaviy ta'lim jarayonida ushbu va boshqa xususiyatlarni batafsil o'rganish juda qiyin bo'lsa-da, o'qituvchi, agar u muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lsa, muhim ma'lumotlarni to'plash uchun qo'shimcha vaqt, kuch va pul sarflashga majbur bo'ladi. Chunki ularsiz shaxsiy fazilatlarini to'liq va aniq bilish mumkin emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi, rang-barang qiziqishlarini hisobga olgan holda o'qituvchining o'zi nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha, balki siyosat, san'at, umumiy madaniyat sohasida ham har tomonlama rivojlangan bo'lishi kerak. Chunki o'qituvchilar yuksak axloq namunasi, insoniy qadr-qimmat va qadriyatlar sohibidir.

Ba'zi o'qituvchilar individual yondashuv faqat "tarbiyasi qiyin" o'quvchilarga, xulq-atvor qoidalarini buzganlarga nisbatan talab qilinadi, degan noto'g'ri fikrdalar. Shubhasiz, bunday o'quvchilarga ko'proq e'tibor kerak, lekin boshqalarni unutmasligimiz kerak. Tashqi farovonlik orqasida nomaqbul fikrlar,

motivlar va harakatlar ham yashirin bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham hammaga birdek e'tibor qaratish lozim.

Tashqi xatti-harakatlar orqali insonning asl xususiyatlarini tushunish juda qiyin va har doim ham mumkin emas. O'qituvchi o'quvchiga yordam berishi natijasida juftlikdagi individual ish shakli yuzaga keladi.

Individuallashtirishning asosiy maqsadi bolaning individualligini saqlash va yanada rivojlantirish, o'ziga xos, noyob bo'ladigan shaxsni tarbiyalashdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish talabi juda qadimgi an'anadir. Chunki o'quvchilar turli ko'rsatkichlar bo'yicha bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi.

Ta'limda individual yondashuvni qo'llash natijasida quyidagilarga erishiladi:

ayrim o'quvchilarni o'qitishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;

barcha o'quvchilarning kuchli va kuchsiz qobiliyatlari hamda imkoniyatlarini rivojlantirish.

Ta'lim-tarbiya ishlarini individuallashtirishda birinchi navbatda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan xususiyatlarni va bu xususiyatlarni diagnostika qilish muammolarini ko'rib chiqaylik. Bu, birinchi navbatda, murakkab xususiyatni o'z ichiga oladi – o'quvchining aqliy rivojlanish darajasi.

Nemis olimi E.E.Werner[154]ning ta'kidlashicha: "Ijodiy fikrlash – bu inson uchun fikrlashning tayanch nuqtasi, g'oyalar va axborotlar bilan o'zaro munosabatga kirishishning tabiiy usulidir. U dars va darsdan tashqari jarayonlarda birdaniga sodir bo'ladigan faoliyat bo'lib, o'quvchiga axborotlarni qat'iy nazorat qilish imkonini beradi". Bu jarayonda, o'quvchi axborotni bo'rttirib ko'rsatishi, qayta ko'rib chiqishi, uni o'ziga moslashtirishi yoki umuman qabul qilmasligi mumkin. Qachonki, o'quvchilarda «Men bu bilimlardan qanday foydalanaman?», «Bu bilimlar bilan mening ko'nikmalarim orasida qanday mutanosiblik bor?», «Bu ma'lumotlar men uchun foydalimi?», «Mening ma'lumotlarga munosabatim qanday?», «Bu axborotlar men uchun zarurmi, ular qanday ahamiyatga ega?» kabi savollarga o'quvchilar javob topgandagina ular da mantiqiy fikrlash ko'nikmalari samarali shakllantiriladi.

Bilish pedagogik nuqtai nazardan o'quvchi faoliyatining o'quv materiallarini ongda aks ettirish jarayonidir. O'quv jarayoni o'quvchilarning o'quv-biluv munosabatlariga kirishish jarayoni bo'lib, u o'quvchilarni intellektual hamda ma'naviy jihatdan rivojlantirishga qaratiladi. O'quv jarayonidagi barcha harakatlar o'qituvchi hamda o'quvchilar orasidagi subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanadi. Bu munosabatlarni o'qituvchi hamda o'quvchilar bilish faolligi orqali amalga oshiradilar. O'quvchilarning bilish faolliklari ularning ta'lim jarayoni hamda o'quv materiallariga nisbatan ijobiy munosabatlarining ifodasidir.

Pedagogik jarayon dinamik rivojlanuvchi murakkab hodisa bo'lib, mantiqiy fikrlash natijasida o'quvchilar egallagan bilimlar obyektiv borliqdagi turli-tuman bog'lanishlar va munosabatlarni tushuncha, qonun, tamoyil, nazariyalar sifatida ular ongiga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida mantiqiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim. Chunki, mantiqiy fikrlash asosida o'quvchilar voqelikka xos bo'lgan barcha qonuniyatlarni bilim va ijtimoiy tajriba shaklida o'zlashtirib, o'z faoliyatlari mazmuniga aylantiradilar. Har doim o'quvchilarga taqdim etiladigan yangi mavzular tarkibidagi bilimlar bilish obyekti bo'lganligi uchun ham ular bshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual fikrlashlariga asos bo'ladi. Mazkur bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun esa, o'quvchilarning fikriy faolliklarini ta'minlash nihoyatda zarur hisoblanadi.

Shaxs tafakkurining taraqqiyoti turli davrlarda psixologlar tomonidan o'rganilgan. Zamonaviy psixologiyada shaxs tafakkuri yuqori darajadagi ruhiy jarayon sifatida talqin etiladi. U insonning borliqni ijodiy ifodalash imkoniyati hisoblanadi. Bu haqiqat ayni zamonda obyektiv borliqda va inson ongida mavjud bo'lmaydi, balki tug'iladi. Inson tafakkuri xotirada mavjud bo'lgan tasavvurlar, obrazlar, haqiqatlarni ijodiy qayta shakllantirish demakdir.

Inson tafakkurining boshqa ruhiy jarayonlardan farqi shundaki, u shaxs faoliyat ko'rsatayotgan mavjud sharoitning o'zgarishi bilan bog'liq. Tafakkur har doim muayyan vazifani yechishga yo'naltirilgan bo'ladi. Tafakkur jarayonida haqiqatni qayta shakllantirishning maqsadga yo'naltirilgan to'laqonli harakatlari amalga oshiriladi.

Tafakkur – aqliy va amaliy faoliyatning alohida turi bo'lib, unda bilish va qayta shakllantirish xarakteridagi harakatlar bajariladi. Psixologiyada nazariy, amaliy va bir qator oraliq faoliyat turlari ajratib ko'rsatiladi. Mazkur faoliyat turlari o'zida muayyan operatsiyalarni mujassamlashtiradi. Biz quyida tafakkurning asosiy turlarini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Nazariy tushunchaviy tafakkur – bu tafakkurning shunday turiki, undan inson muayyan topshiriqlarni yechishda foydalanish jarayonida haqiqatni bevosita tajribaviy o‘rganishga e’tibor qaratmaydi. Tafakkur uchun zarur bo‘lgan empirik dalillarni olmaydi, dalillarga asoslangan harakatlarni qabul qilmaydi, haqiqatni aniq qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan harakatlarni qo‘llamaydi. Bu jarayonda inson topshiriqlarning yechimini boshdan oxir fikran muhokama qiladi va ularning yechimini izlaydi. Inson mazkur jarayonda o‘zining ongi, tushunchalari, xulosalarida mavjud bo‘lgan bilimlardan foydalanadi. Nazariy tushunchaviy tafakkur nazariy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar uchun xosdir.

Nazariy obrazli tafakkur tushunchaviy tafakkurdan shunisi bilan farqlanadiki, unda inson qo‘yilgan vaziflarni yechish uchun tasavvurlar va obrazli fikrlash mahsulidan foydalanadi. Ular borliqni bevosita idrok etish asosida yoki tushunchalar negizida hosil bo‘ladi. Quyilgan topshiriqlarni yechish jarayonida mazkur obrazlar fikriy jihatdan shunday shakllanadiki, natijada inson o‘z oldiga qo‘yilgan vaziflarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Obrazli tafakkur o‘zida aqliy faoliyatning o‘ziga xos shaklini mujassamlashtiradi. Buni, ayniqsa, ijodkorlar faoliyatida ko‘rish mumkin.

Inson tafakkuri o‘ziga xos turlarga ega. Ular:

Nazariy: a) tushunchaviy; b) obrazli.

Amaliy: a) ko‘rgazmali-obrazli; b) ko‘rgazmali-harakatli.

Tafakkurning yuqoridagi har ikkala – nazariy tushunchaviy va nazariy obrazli turlari obyektiv borliqda mavjud bo‘lsa-da, turlicha darajada namoyon bo‘ladi. Ularning har ikkkalasi bir-birini to‘ldiradi. U insonning turli, o‘zaro aloqador qirralarini ochishga xizmat qiladi. Nazariy tushunchaviy tafakkur obyektiv borliqni garchand abstrakt xarakterda bo‘lsa ham aniq, umumlashtirgan holda ifodalash imkoniyatiga ega. Nazariy obrazli tafakkur inson idrokiga xos bo‘lgan aniq subyektiv fikrlash tarzini ifodalaydi. U obyektiv-tushunchaviy tafakkurga nisbatan bir qadar aniqlik xarakteriga ega. Bunday tafakkur tarzisiz insonning fikrlash jarayoni obyektiv borliqni chuqurroq va to‘liqroq tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi.

Ko‘rgazmali-obrazli tafakkurning o‘ziga xos jihati obyektiv borliqning u haqida fikr yuritayotgan inson tasavvurlari bilan bevosita bog‘liqligidadir. Inson ko‘rgazmali-obrazli tafakkur qilarkan, u obyektiv borliq bilan bevosita bog‘lanadi, uni har tomonlama chuqur idrok etadi. Obrazlarni aniq tasavvur qilishda insonning tasavvurlari, qisqa muddatli tezkor xotirasi muhim ahamiyatga ega. Tafakkurning bunday turi maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun xosdir. Katta yoshli kishilar esa amaliy mashg‘ulotlarni bajaradilar. Tafakkurning bunday tarzi turli darajadagi rahbarlarga xos bo‘ladi. Bunday kishilar o‘z faoliyatlari davomida tez-tez muhim qarorlar qabul qiladilar.

Ko‘rgazmali-harakatli tafakkurning o‘ziga xosligi shundaki, u amaliy, qayta shakllantiruvchi xarakter kasb etadi. Bunday vaziyatlarda aqliy topshiriqlarni yechishning asosiy sharti muayyan narsalar va buyumlar bilan bog‘liq harakatlarni aniq va to‘g‘ri bajarishdan iborat. Tafakkurning mazkur turi ishchilarga xosdir. Chunki ular aniq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanib, natijada mahsulotlar ishlab chiqaradilar.

Nazariy hamda amaliy tafakkur orasidagi farq shundaki, ular amaliyot bilan turli darajada bog‘langandirlar. Amaliy tafakkurning faoliyati asosan xususiy aniq vazifalarni yechishga qaratilsa, nazariy tafakkur umumiy qonuniyatlarni izlab topishdan iborat. Nazariy tafakkur ham, amaliy tafakkur ham oxir oqibatda amaliyot bilan bog‘lanadi. Shu bilan bir qatorda amaliy tafakkurning aloqasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita xarakterga ega. Amaliy aql har doim amaliy vazifalarni yechishga yo‘naltiriladi. Bunday faoliyatning natijasi bevosita amaliyotning o‘zida tekshiriladi.

Nazariy aqlning yakuniy natijalarigina amaliy ishlar orqali tekshiriladi. Tafakkurning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha turlari ayni bir faoliyat doirasida namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq faoliyatning xarakteri va yakuniy natijasidan kelib chiqqan holda tafakkurning muayyan turi yetakchi mavqega ega bo‘ladi. Shuning uchun mazkur holatni asoslash jarayonida ularning barchasi o‘zaro farqlanadi. O‘zining muarakkablik darajasi va insonning intellektual hamda boshqa layoqatlari asosida qo‘yadigan talablariga ko‘ra tafakkurning turlari bir-birining o‘rnini bosa olmaydi.

Ushbu tizimda mantiqiy hukmlar muhokama qilish va xulosalar chiqarish layoqati sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa psixologik-pedagogik izlanishlarda bilishning asosiy turi sifatida talqin etiladi.

Psixologlar va pedagoglarning e’tirof etishlaricha, boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish natijasida o‘quvchilarning tafakkur tarzida o‘zgarishlar vujudga keladi va bu birinchi navbatda o‘quv faoliyati bilan bog‘liq holda amalga oshadi.

Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish va ommalashtirish bugungi kunga kelib pedagogik zaruriyatga aylanmoqda. O'quvchilarning taraqqiyotida ularda fikriy faoliyat tajribasining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Dastlabki bosqichdagi harakatli tahlillar asta-sekin hissiy, keyinchalik esa aqliy tahlil usullarini egallash bilan boyib boradi. O'quvchilar tafakkuridagi bunday o'zgarishlar tadrijiy tarzda 1-sinf dan boshlab, 3-sinf gacha amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda qisman amalga oshiriladigan tahlillar tizimli tarzda izchillik va uzviylik xarakteriga ega bo'lib boradi. O'quvchi tafakkuridagi oddiy umumlashtirishlar sinfdan-sinf ga o'tgan sari murakkabroq xarakter kasb eta boshlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkuridagi tahlil va umumlashtirish o'zaro aloqador, biroq ularda tahlil jarayoni umumlashtirishga nisbatan oson kechadi. Shu tariqa ularda hodisalarni chuqurroq idrok etish ko'nikmasi shakllanadi. Boshlang'ich sinflarda bosqichma-bosqich aniq o'zgarishlarning ro'y berganligi kuzatiladi. 1-2-sinflarda tizimlilik xarakteriga ega bo'lmasdan tashqi belgilarga asoslangan holda fikrlash jarayoni amalga oshiriladi. 3-4-sinflarda esa fikrlash rejali, tizimli xarakter kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurining rivojlanishi asosan o'quv jarayonida individual yondashuvni tadbiiq etish natijasida ro'y beradi. Shuning uchun ham o'qituvchilar va ota-onalar o'quvchilar bilan shug'ullanishga vaqt topishlari, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatishlari kerak. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish uchun turli-tuman topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday topshiriqlardan darslarda beriladigan topshiriqlar va uy vazifalari sifatida foydalanish mumkin.

Shu narsa aniqki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xos bo'lgan jihatlardan biri jadal jismoniy, aqliy rivojlanishdir. Buni ularning o'zlari ham his etadilar va ko'proq narsa bilishga intiladilar. Biroq har bir bolada bu jarayon o'ziga xos tarzda kechadi va namoyon bo'ladi. Kattalar, ayniqsa, o'qituvchilar o'quvchilarning jismlari, ruhiyatlarini, xulq-atvorlaridagi o'zgarishlarning ularga ta'sirini hisobga olgan holda o'quv faoliyatlarini tashkil etishlari kerak. Chunki bu yoshdagi o'quvchilarda yuqori darajadagi ta'sirlanish, tez xafa bo'lib qolish, jahldorlik, keskinlik kuzatiladi.

Kattalarning ulardagi ichki muammolarni yechishga individual ko'maklashishlari natijasidagina ularda bir qadar osoyishtalik, atrofdagilarni tanqidiy baholash, o'z muammolari ustida mustaqil fikrlash kuzatiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiiq etish natijasida o'quvchilarda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabat o'rnatishga bo'lgan intilish kuzatiladi. Bu esa ulardagi ruhiy rivojlanishning yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

O'quvchilar taraqqiyotidagi ijtimoiy-pedagogik vaziyatlarning o'ziga xosligi shundaki, ular o'z tengdoshlari va kattalar bilan yangicha ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar, ular orasida o'zlarining mavqelarini egallab, yangi vazifalarni bajaradilar. Sinf jamoasi orasida muayyan rollarni bajarishga kirishadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sinfdan-sinf ga o'tgan sari ko'proq ijtimoiy faoliyat ko'rsatishga intila boshlaydilar. Bu esa ularning dialogga kirishishlari, atrofdagilar bilan muloqot o'rnatishlari uchun qulay sharoit yaratib, ijtimoiy qadriyatlarini o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Garchand bu davrda o'quvchilar uchun o'quv faoliyati yetakchi o'rin egallasa-da, ular ruhiyatida kuzatiladigan asosiy yangilik ijtimoiy munosabatlarga kirishishlaridir. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyati o'qituvchilari va tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlik qilishlariga asos bo'ladi. Bu esa o'quvchilar uchun yetakchi ehtiyoj bo'lgan muloqot qilish ehtiyojini qondiradi.

Mazkur ehtiyojni qondirish maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilariga O'zbekiston jamiyatiga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy me'yorlar singdiriladi. Buning natijasida ularda muayyan masalalarga oid nuqtai nazar, xulq-atvor me'yorlariga amal qilish, u bilan bog'liq qoidalarni o'zlashtirish ko'nikmasi shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nafaqat faoliyat mazmuni, balki uning shakllari bilan ham tanishib, uni bajarishga oid dastlabki ko'nikmalarni egallaydilar. Bu davrda ularni tabiat manzaralari, syujetli rasmlar, qiziqarli hikoyalar, turli o'yinlar o'ziga jalb qiladi. ular tobora ko'proq yangi narsalarni o'rganishga intiladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan individual tarzda o'tkazilgan suhbatlar shuni ko'rsatadiki, ular tafakkurining rivojlanishida tengdoshlari sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Barcha xatti-harakatlari va ishlarda ular tengdoshlarining fikriga tayanadilar. Shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'z o'ngida o'qituvchi juda katta mavqega ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari har doim o'qituvchining xatti-harakatlarini diqqat bilan kuzatadilar va unga taqlid qilishga intiladilar. Ular har doim o'qituvchiga baho beradilar va o'zlarining unga bo'lgan munosabatlarini baholovchi hukmlar asosida shakllantiradilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlari bilan o'qituvchilari va ota-onalari fikrlari mos kelishi alohida ahamiyatga ega. Shundagina vujudga kelgan qarama-qarshiliklarni bataraf etish va boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etish, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatlariga kirishishlari va xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida yetakchi o'rin egallaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z bilganlarini namoyish qilishga ko'proq intiladilar. Ular tengdoshlari, sinfdoshlari tomonidan tan olinishlarini ho'xlaydilar, o'qituvchining maqtovlariga sazovor bo'lishni istaydilar. Ularning harakatlari va xulq-atvor me'yorlari o'zlashtirgan ma'naviy-axloqiy qoidalarga mos tarzda shakllana boshlaydi.

O'quvchilar nutqi bilan tafakkurining o'zaro aloqadorligi muammosi uning muloqot va shaxs ongini shakllantirishdagi ahamiyati o'z yechimini kutayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Borliqning aniq manzarasi, uni inson ongida aks etishini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, inson obyektiv olamning subyektiv ifodasini o'z ongida yaratadi. Obyektiv borliqni o'quvchilar nafaqat ko'rgazmalilik asosida idrok etadilar, balki u o'zaro aloqalar va munosabatlarda ham aks etadi.

O'quvchilar analizatorlardan foydalangan holda nafaqat buyumlar va hodisalarni idrok etadilar, balki hattoki bevosita shaxsiy tajribaga ega bo'lmasalar-da, ularni muhokama qiladilar, xulosalar chiqaradilar. Chunki insonga nafaqat hissiy, balki ratsional bilish ham xosdir.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kuzatuvchan va tajribali o'qituvchi boshlang'ich ta'lim jarayoniga individual yondashuvni tadbiq etishda o'quvchilarning tipologik xususiyatlarini, ularning o'zini o'zi qadrlashini "hayot ko'rsatkichlari" orqali aniqlay oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari bu borada eng katta qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar.

Bu borada o'qituvchi temperament turini, o'quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olishi, ya'ni u zo'r psixolog sifatlariga ega bo'lishi kerak.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI.

Mukhamadovna, T. M., Djamshitovna, K. M., & Narzullayevna, Q. S. (2021). Art as a significant factor of forming world outlook of students. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.

Djamshitovna, X. M. (2021). Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Primary Educational Process. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 192-195.

Djamshitovna, X. M. (2021). The Didactic Potential of Modern Information Technologies in Achieving the Professional Competence of the Future Teacher. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 201-204.

Djamshitovna, X. M. (2021). Pedagogical Opportunities for Implementing an Individual Approach to the Initial Educational Process. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 252-255.

Haydarova, M. (2017). Impact of globalisation on economic growth and investment attractiveness of regions. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (4), 149-158.

Хайдарова, М. Д. (2013). Роль интеграции в школьном образовании. *Педагогика и современность*, (4), 33-36.

Хайдарова, М. Д., Юлдашев, Б. Н., & Узбекистан, Б. (2019). Информационные технологии в трудовом обучении школьников. *teacher Namangan region, Norin district school*, 40, 542.

Хайдарова, М. Д. (2020). Способы реализации индивидуального подхода к начальному образованию. *European research*, 6, 64.

Хайдарова, М. Д. (2020). Единство трудового и эстетического воспитания школьников. *Вестник науки и образования*, (23-2 (101)), 63-65.

Хайдарова, М. Д. (2019). Интеграция уроков технологии с другими предметами. *Теория и практика современной науки*, (5), 755-758.